



JIZZAX QO'ZG'OLONI VA UNING OQIBATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20082985>

Jahongirova Munira Muroddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada podshoning Rossiyani front orqasiga chaqirish haqidagi farmoni, bu bilan bog'liq 1916 yildagi g'alayonlar va bu g'alayonlarning eng shiddatli Jizzax qo'zg'oloni haqida ma'lumotlar berilgan. Jizzax qo'zg'oloni Jizzax va uning atrofidagi aholining podsho Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi milliy ozodlik harakati bo'lib, harakat yetakchilari va unda faol ishtirok etganlarning nomlari bugungi kungacha mamlakatimizning shonli tarixidan munosib o'rin egalladi.*

Kalit so'zlar: *Jizzax qo'zg'oloni, Abdurahmon Jevachi, Nazirxo'ja Eshon, polkovnik Afanasyev, Turkiston, mardikorlik, mustamlakachilik, xalq harakati, qo'zg'olon, milliy ozodlik, Rossiya imperiyasi.*

KIRISH

XX asr boshlariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1914 – 1918-yillarda bo'lib o'tgan va butun dunyoni qamrab olgan birinchi jahon urushi davrida misli ko'rilmagan talafotlar sodir bo'ldi. Bu voqea natijasida faqatgina harbiylar emas, balki front ortida qora ish qilish majburiyati yuklatilgan aholi vakillari ham aziyat chekishgan. Front ortiga xizmatga chaqirilish jarayonida turli xil adolatsizliklarga yo'l qo'yildi. Oqibatda, o'lka hududida demokratik-inqilobiy harakatlar avj ola boshladi.

Shunday og'ir vaziyatda 1916-yil 25-iyunda rus imperatori Nikolay II imzosi bilan «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va

harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida» deb chiqarilgan farmoni e'lon qilindi. Bunga ko'ra, Turkiston o'lkasidagi Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan kishilar mardikorlikka safarbar etilishi lozim edi.

DOLZARBLIGI: Podshohning farmoni haqidagi bu xabar butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tezlik bilan tarqalib, Turkiston mehnatkashlarini qon va qayg'u bilan larzaga soldi. Chunki ishga faqat kambag'allarning farzandlarini olib borish rejalashtirilgan edi. Volost gubernatorlari, oqsoqollar va ellikta boshliqlarga mehnat ro'yxatini tuzish topshirildi. Ular bundan o'z



manfaati uchun foydalanishdi. Mahalliy hokimiyat katta pora evaziga boy va amaldorlarning farzandlarini safarbarlikdan ozod qilgan, kambag'al oilalar farzandlarini esa bu ro'yxatga qo'shgan. Bundan tashqari, mustamlakachilarning ruxsati bilan boylar va amaldorlar o'z o'g'illari o'rniga boshqa odamlarni ishga olishlari mumkin edi. Bunday nohaqlik, nohaqlik, firibgarliklar allaqachon ayanchli hayot kechirayotgan nochor xalq ommasining sabr-toqatini to'ldirib, boshini ko'tarishga majbur bo'lmoqda. Shu tariqa Turkistonda tarixda Jizzax qo'zg'oloni nomi bilan mashhur bo'lgan umumxalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: 1916-yilgi Turkiston, xususan Jizzax qo'zg'oloni masalasi bir qator muhim ilmiy asarlarda turli yondashuvlar asosida yoritilgan. Jumladan, Tarix: istilolar va qo'zg'olonlar asarida qo'zg'olonlarning kelib chiqish sabablari, ularning tarixiy ildizlari va bosqichma-bosqich rivojlanishi keng tahlil qilinadi. Mualliflar ushbu jarayonlarni mustamlakachilik siyosati va ijtimoiy ziddiyatlar bilan bog'liq holda izohlaydi.

Shuningdek, R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, S.Hoshimov, va O. Ubadullayevlar[2] "Vatan tarixi" kitobida 1916-yil voqealari umumiy tarixiy jarayonlar kontekstida ko'rib chiqilib, qo'zg'olonning hududlar bo'yicha tarqalishi va asosiy harakatlantiruvchi kuchlari yoritiladi. Bu asar mavzuning

umumiy tarixiy manzarasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

H. Ziyoyev [3] "Turkistonda rus tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash"da esa Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va unga qarshi xalq harakatlari chuqur ilmiy asosda tahlil qilinadi. Muallif qo'zg'olonlarni milliy ozodlik kurashi sifatida baholab, ularning siyosiy mohiyatini ochib beradi.

Bundan tashqari, H.Xaydarov, Q.Usmonov [4] "Jizzax tarixi" asarida Jizzax hududidagi qo'zg'olon voqealari, uning ishtirokchilari va oqibatlari aniq tarixiy faktlar asosida batafsil bayon etilgan. Ushbu manba tadqiqotning hududiy jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot tarixiy-tahliliy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida xronologik metod yordamida 1916-yilgi voqealarning ketma-ketligi tiklandi va ularning rivojlanish bosqichlari aniqlashtirildi. Taqqoslash metodi orqali turli hududlarda yuz bergan qo'zg'olon harakatlari o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari ochib berildi.

Shuningdek, tizimli tahlil usuli qo'llanilib, qo'zg'olonning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Manbashunoslik metodi asosida Tarix: istilolar va qo'zg'olonlar, Vatan tarixi, Turkistonda rus tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash hamda Jizzax tarixi kabi ilmiy manbalar o'rganilib, ularning ilmiy ishonchligi va mazmuni tahlil qilindi.



Bundan tashqari, tarixiy rekonstruksiya usuli orqali qo'zg'olon voqealari, ishtirokchilari va ularning harakatlari imkon qadar aniq tiklashga harakat qilindi.

MUHOKAMA: Qo'zg'olon Jizzax shahari va uning atrofidagi hududlarda bo'lib, Jizzax xalqining chor hokimiyatining kamsituvchi mustamlakachilik siyosatiga qarshi ko'tarilgan edi. Ushbu farmonda Turkiston xalqlaridan jami 250 ming, jumladan, Samarqand hududidan 88 ming, Sirdaryo hududidan 87 ming, Farg'ona hududidan 50 ming erkaklarni safarbar qilish ko'rsatilgan edi. Samarqand viloyati tarkibidagi Jizzax uyezdidan 10531 erkakni front ortidagi ishlarga mardikorlikka chaqiriladigan bo'ldi. Shu jumladan, Jizzax shahridan 655 kishi, Zomin volosti bo'yicha 731 kishi, Sangzor volostidan 2891 kishi, Sintob volostidan 508 kishi, Bog'don volosti bo'yicha 2311 kishi front ortidagi ishlarga mardikorlikka safarbar etilishi mo'ljallangan edi. Podsho farmonining e'lon qilinishi va mardikorlikka olish bo'yicha tadbirlar mehnatkashlar ommasining qahr-g'azabi va nafratini kuchaytirib, ommaviy qo'zg'olonga aylanib ketishiga olib keldi.

Qo'zg'olon dastavval 1916-yil 4-iyulda Xo'jandda ko'tarildi. Bu yerda to'plangan 6-7 minglik xalq politsiya idorasini qurshab, mardikorlikka bormasliklarini shovqin-suron bilan aytdilar. Xalqning oldingi saflarida B. Abdumadaminov, Abdumadaminov,

Dadaboy Masharipov, Yahyoxon Qori Olimxonov va Eshonxon Mirza O'rinov singari kishilar borib, jasorat namunalari ko'rsatdilar. Olomon orasida ayollar va bolalar ham bor edi. 9-iyul kuni Qo'qon uyezdida, 11-iyul kuni Samarqand va Toshkentda, 13-iyul kuni Jizzax uyezdida ommaviy tus oldi.

Jizzax shahrida boshlangan qo'zg'olonga Nazirxo'ja Abdusalomov, Ziyo qori Abdullayev, Muhammad Xo'jayev, Komil qori Bobojonov, Muhammad Ashurov, Bog'donda Abdurahmon jevachi Abdujabborov, Sangzor volostida aka-uka To'raqul va Eshonqul To'rabekovlar, Zomin volostida Turdiboy Xudoynazarov, Karim Orziqulov kabi xalq yo'l boshchilari boshchilik qildilar. Zomin volostidagi Qirq qishlog'ida Karim Orziqulov boshliq olomon ellik boshlardan Norcha va Kulbeklarni o'ldirishadi. Qo'zg'olonchilarning Turdibek Xudoynazarov boshchiligidagi 500 kishilik yana bir guruhi Chuqurtoq qishloq oqsoqoli Mulla Mahkamboy, Mulla Ro'ziqulovni toshbo'ron qilib o'ldirishadi. Zomin pristavi Sobelov qurolli qo'zg'olonn bostirish uchun soqchilar va tarjimoni bilan Yom volostiga kelib qo'zg'olon tashabbuschilaridan 7 kishini, shu jumladan, Karim Orziqulov bilan Turdibek Xudoynazarovni qo'lga tushirib, soqchilar hamda Yom volosti boshqaruvchisi Mulla Fozilov bilan Zominga jo'naydi. Lekin ular yo'lda 800 kishilik qo'zg'olonchilar hujumiga duch



keladi. Qo'zg'olonchilar qo'lga olingan Karim Orziqulov bilan Turdibek Xudoynazarovlarni ozod qiladilar, pristav Sobelov esa qochib qutulishga muvaffaq bo'ladi. Yom volostidagi singari qo'zg'olon harakatlari Yangiqo'rg'on, Zomin, Sangzor va boshqa volostlarda ham ro'y berdi.

Qahr-g'azabga to'lgan qo'zg'olonchilar Toshloq mavzesida otliq soqchilar bilan qurshab olingan uyezd hokimi polkovnik P.I.Rukin, shtabskapitan P.D. Zotogolov, mahalliy mirshab Komil Jumanboyev, soqchi askar Gritsenko, tilmoch Mirzahamdani Zokirjonovlar guruhiga duch kelishadi, o'rtada ur-yiqit, otishma boshlanadi. Qo'zg'olonchilar ularni o'ldirishadi. To'qnashuvda ko'plab qo'zg'olonchilar ham halok bo'ladilar. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Nazirxo'ja Abdusalomov boshchiligida, podpolkovnik Afanasyev boshchiligidagi jazo otryadi bilan jangga kirishadi. Afanasyev jazo otryadi qo'zg'olonni bostira olmay, o'zlarini mudofaa qilishga o'tadi. Qo'zg'olonchilar katta talafotlarga qaramay hujumni davom ettiradilar. Jizzax temir yo'l shohbekatidagi neft zahiralari yondiriladi, temir yo'l izlari buziladi, aloqa simlari uzib tashlanadi.

Jizzax shahrida ko'tarilgan qo'zg'olon tez orada shahar atrofidagi hududlarga ham yoyildi. Ayniqsa, Abdurahmon jevachi boshchiligidagi Bog'don volostida kelgindi mustamlakachilar va mahalliy amaldorlarning mustamlakachilik

zulumiga qarshi bosh ko'targan bog'donliklarning jasoratlari Vatan tarixida alohida o'rin tutadi. Abdurahmon jevachi bosqinchi mustamlakachilarga qarshi faqat barcha kuchlarni birlashtirib kurash olib borish orqali g'alabaga erishish mumkin deb hisoblaydi. Shu maqsadda u jizzaxlik jadidlar tomonidan qo'zg'olonni tashkil qilish uchun yuborilgan Muhammadrahim Abdurahimov bilan maslahatlashib, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini uyushtiradi. Majlisda qo'zg'olonni tashkiliy jihatdan tayyorlash, Jizzax qo'zg'oloniga amaliy yordam berish, istilochi qo'shinlarga birlashib kurashish va Turkiston o'lkasi mustaqilligini ta'minlash kabi masalalar muhokama qilinadi. 13-iyul kunining ikkinchi yarmida Jizzax qo'zg'oloni boshlangani haqida xabar Bog'donga yetib kelgach, Bog'don volostida ham qo'zg'olon boshlanadi.

Qo'zg'olonchilar Bog'don volosti boshlig'i Borillani qo'lga tushirish rejasini tuzgan edilar, ammo pristavning ayg'oqchilari unga bu xabarni yetkazishgach, u 14-iyul kuni Bog'dondan chiqib ko'chmanchi chorvadorlar huzuridan panohtopadi. Shu kuni Abdurahmon jevachi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar mustamlakachilarning Bog'don volosti mahkamasiga hujum qilib, 1950 nafar mardikorlikka olinuvchilar ro'yxatini qo'lga tushirib, yoqib tashlaydilar. Mahkamadagi qurol-yarog'larni qo'lga kiritib, mirshablar xonasini ostin-ustun qilib, barcha



buyumlarni sindirib tashlaydilar. Pristav aloqachisi S. N. Sibirsevning Jizzaxdan Bog'donga jazo otryadini chaqirish to'g'risidagi maxfiy xatini qo'lga tushiradilar. Qo'zg'olonchilar Sibirsevni o'ldiradilar, mahkamaning boshqa xodimlari hibsga olinadi.

Sangzor, Bog'don, Zomin volostlaridan 3 mingdan ko'proq qo'zg'olonchilar Jizzax tomon yo'l oladi. Podpolkovnik Afanasyev qo'mondonlik qilgan jazo otryadi qo'zg'olonni bostira olmaydi. Turkiston general-gubernatorligi Jizzaxga qo'shimcha ravishda polkovnik Ivanov boshchiligida 13 rota askar, 3 rota kazak jangari otryadi, 3 rota sapyorlar, 6 ta to'pli batareya — hammasi bo'lib 2,5 ming kishilik jazo otryadini yuboradi. 1916-yil 21-iyulda Abdurahmon jevachi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Jizzax tomon yuradi. O'sha kuni Jizzaxning g'arb tomonidagi Qili nomli manzilgohda Afanasyev qo'shinlariga qarshi jangga kiradi va uni chekinishga majbur qiladi. Afanasyev qo'shinlari yengilish arafasida polkovnik Ivanov boshchiligidagi katta harbiy qo'shin yetib keladi. Ayovsiz jangda qo'zg'olonchilar yengiladi.

1916-yil 21-iyulda Qili yaqinidagi jangda qo'zg'olonchilar yengilgach, jazo otryadi boshlig'i polkovnik Ivanovning Bog'donda qo'zg'olonda qatnashgan kishilardan o'ch olish, ularning mol-mulkini va yerlarini tortib olish haqidagi taklifiga binoan Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan davlat maslahatchisi Papengu raisligida maxsus komissiya tuziladi.

Qo'zg'olonchilarga boshchilik qilgan Nazirxo'ja, Muhammadrahim, Komil qori, Ziyo qori, Abdurahmon jevachi, Nuriddin hoji va boshqalarga qarashli 1810 desyatina eng hosildor yerlar tortib olinib, rus amaldorlariga bo'lib beriladi. Mingdan ortiq qo'zg'olonchi qamoqqa olinib, ularning ko'pi qatl etiladi. Qo'zg'olonchilarni ayovsiz jazolashdagi "xizmatlari" evaziga polkovnik P.Ivanovga general unvoni beriladi va Farg'ona viloyati harbiy gubernatori lavozimiga ko'tariladi.

1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni qurol kuchi bilan bostirilgach, barcha Jizzaxlik jadidlar qo'lga olinadi. S.Afanasyev, P.Ivanov boshchiligidagi insoniylik qiyofasini yo'qotgan jazo otryadi tomonidan Yangiqishloq, Ilonchi, To'qay, Yem, Etoq, Nurak, Qoratosh, Anamuna, Sarimsoq, Sharilloq, Safar ota, Majrum va boshqa o'nlab qishloq va ovullarga batamom o't qo'yib kulini ko'kka sovuradilar. Yuzlab kishilar qo'zg'olonda qatnashgan-qatnashmaganligidan qat'i nazar qamoqqa olinib, so'roqsiz otib tashlanadi, osiladi va Sibirga surgun qilinadi.

Qo'zg'olon qatnashchilaridan uch mingdan ortiq kishi sudga berilib, ulardan 347 tasi osib o'ldirishga hukm qilingan. Biroq vaziyatni yanada keskinlashtirmaslik uchun 51 kishi qatl etilib, qolganlariga o'lim jazosi surgun va qamoq bilan almashtirildi. Yuzlab odamlar turli muddatlar bilan qamoqqa hukm qilindi. Ayrim shahar va qishloqlar butunlay vayron etildi. Ko'plab uylar



talandi va kuydirildi. Ayniqsa, Jizzax qo'zg'olonchilariga nisbatan vahshiylarcha munosabatda bo'ldilar.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni Turkiston xalqlari tarixida mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'tarilgan eng yirik va fojeali xalq harakatlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qo'zg'olon Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan 1916-yilgi farmon, ya'ni mahalliy aholining majburiy ravishda front orti ishlariga safarbar etish siyosatiga qarshi kuchli norozilik natijasida yuzaga keldi. Qo'zg'olon dastlab kichik hududlarda boshlangan bo'lsa-da, tez orada Xo'jand, Qo'qon, Samarqand, Toshkent va Jizzax kabi yirik hududlarga yoyilib, ommaviy xalq harakatiga aylandi. Xalq o'zining og'ir iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy adolatsizlik va mustamlakachilik bosimiga qarshi bosh

ko'tarib, erkinlik va adolat talabini ilgari surdi. Qo'zg'olon davomida xalq orasidan chiqqan jasur yo'l boshchilar yetakchilik qilib, aholining noroziligini uyushtirish va muvofiqlashtirishga harakat qildilar. Biroq kuchlar teng bo'lmaganligi, qo'zg'olonchilarning qurol-yarog' va harbiy tayyorgarligi yetarli emasligi sababli, imperiya qo'shinlari tomonidan bu harakat shafqatsiz ravishda bostirildi. Natijada minglab insonlar qatl etildi, surgun qilindi yoki qamoqqa tashlandi, ko'plab qishloqlar vayron qilinib, xalq katta talafot ko'rdi. Bu voqealar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy adolatsizligining yaqqol ifodasiga aylandi. Shunga qaramay, Jizzax qo'zg'oloni xalqning ozodlikka intilishi, zulmga qarshi kurash ruhi va milliy ongning uyg'onishida muhim tarixiy bosqich bo'lib qoldi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdiyev H. Konishev J. Tarix: istilolar va qo'zg'olonlar. Toshkent. 2016.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Hoshimov S., Ubadullayev O. Vatan tarixi. Kitob Toshkent. 2016.
3. Ziyoyev H. Turkistonda rus tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent. 1998.
4. Xaydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. Toshkent. 2009.